

## HINDIY TILIDAGI JUFT SO'ZLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7389419>

Tojimurodova Surayyo Rashid qizi

TDSHU Lingvistika mutaxassisligi 1-kurs magistranti

E-mail: tojimurodovasurayyonurjah@gmail (+99899)0986124

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada hindiy tilidagi juft so'zlarning leksik-semantik tahlili doirasida amalga oshirildi. Hindiy tilidagi juft so'zlar etimologik jihatdan tahlil qilinib, tatsama, tatbhava, videshi, deshi hamda gibridda so'zlarga ajratib o'rGANildi.*

**Tayanch so'zlar.** Juft so'zlar, etimologik tahlil, tatsama, tatbhava, deshi, videshi, gibridda so'zlar.

### ANNOTATION

*In this article, the lexical-semantic analysis of pairs of words in the Hindi language was carried out. Pairs of Hindi words were etymologically analyzed and divided into tatsama, tatbhava, videshi, deshi and hybrid words.*

**Key words:** pairs of words, etymological analysis, tatsama, tatbhava, deshi, videshi, hybrid words.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье был проведен лексико-семантический анализ пар слов в языке хинди. Пары слов хинди были этимологически проанализированы и разделены на tatsama, tatbhava, videshi, deshi и гибридные слова.*

**Основные слова:** пары слов, этимологический анализ, tatsama, tatbhava, deshi, videshi, гибридные слова.

Mazkur maqolada hindiy tilidagi juft so'zlar tilshunos olimlarning ilmiy asarlari va qarashlari asosida etimologik jihatdan o'rGANildi. Maqolani yozishda ko'plab ilmiy asarlar o'rGANildi. Ko'rib chiqilgan ilmiy asarlar orasida hind va rus tilshunos olimlaridan V.P.Beskrovniy, K.Guru, Z.M.Dimshist, O.G.Ultsiferov, V.I.Goryunov, V.V.Vinogradov, M.I.Zadorojniy hamda E.V.Fedorchik kabi olimlar va 19-asrning oxiri va 20-asrning boshlarida rus sharqshunos maktabi vakillaridan bo'lgan G.S.Lebedov, K.A.Kossavichlar juft so'zlarni o'z ilmiy ishlarida nazariy jihatdan tatqiq etganliri ma'lum bo'ldi.

Tilshunoslik asarlaridan ma'lumki, "juft so'z-mustaql leksik ma'noli yoki leksik ma'noga ega bo'lmanan ikki qismning teng bog'lanishi asosida tashkil

topib,umumlashtirish,jamlik kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z;so'zning juft shakli. juft so'z qismlari o'rtasidagi to'xtam (pauza) qisqa bo'ladi;baxt-saodat,xat-xabar,aka-uka<sup>1</sup> ma'nosini ifodalaydi.Juft so'zlar yangi lug'aviy birliklar hosil bo'lishi (so'z yasalishi)ning ikkinchi usuliga mansub. Juft so'zlarning hosil bo'lishida qismlarning sintagmatik munosabati teng aloqa yordamida amalga oshadi. Bu xususiyat ularni qismlarining sintagmatik munosabati tobe aloqaga xoslangan so'z qo'shilmalari-qo'shma so'zlardan farqlash uchun xizmat qiladi”<sup>2</sup>.

Shunday bo'lishiga qaramay, juft va qo'shma so'zlar bir umumiylug'aviy - grammatick tizim(so'zlar qo'shilmasi)ning har xil ichki gomogen guruhlari maqomida bo'ladi. Bu kichik axborotda juft so'zlar va ularning tarkibiy qismlariaro amal qiluvchi mantiqiy-mazmuniy munosabatlarning ayrimlari haqida fikr yuritiladi. Juft so'zlarning qismlariaro biz nazarda tutgan mantiqiy-mazmuniy munosabatlardantashqari,yana bir qator lug'aviy-mazmuniy (leksik-semantik) munosabatlar ham amal qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: 1) giponimiya munosabati (qo'l-oyoq,qovun-tarvuz,echki-ulq,olma-o'rik va b.); 2) sinonimiya munosabati (kuch-quvvat,o't-olov,orzu-havas,ishq-muxabbat; qing'ir-qiyshiq,yakka-yagona,aqli-hushli;asta-sekin va b.); 3) antonimiya munosabati (yosh-qari, o'g'il-qiz,oq-qora,yaxshi-yomon,issiq-sovuq;erta-kech,nari-beri,oldin-ketin; bordi-keldi,yotdi-turdi,kirdi-chiqdi va b); pantonimiya munosabati (oy-kun,tog'-tosh va b)<sup>3</sup>.

So'z qo'shilishi-aslida grammatick(sintaktik) jarayon. Juft so'zlar ham dastlab ana shu jarayonga mansub bo'ladi. Lekin ularning tarkibiy qismlariaro grammatick xususiyatlari bora-bora kuchsizlanib ,so'nadi,oqibatda juft so'zlar so'z yasalishi va lug'aviy sath hodisalariga aylanadi<sup>4</sup>

Juft so'zlarning qismlariaro o'ziga xos mantiqiy - mazmuniy munosabatlar mavjud bo'ladi. Bunday munosabatlarga dizyuksiya va konyuksiya munosabatlari kiradi,geteronimiya munosabati ularga hamkorlik qiladi. Juft so'zlarda ma'no va shaklga teng keluvchi sintaktik muqobillar faol ishlataladi(ota-on (ota va ona),katta-kichik(katta va kichik)\katta-yu kichik),bordi-keldi (bordi vs keldi\bordi-yu keldi).

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xorijiy tillarni o'rganishda ,ularga doir ilmiy tadqiqod ishlarini amalga oshirishda leksikologiyaning etimologiya bo'limi muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Hojiyev.A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Davlat ilmiy nashriyoti,2002-40-b

<sup>2</sup> G'aniyev F.A. Сиффиксальное словообразование в современном татарском литературном языке. -Казан, 1974. -C.4

<sup>3</sup> S. Usmonov. Umumiyltilshunoslik. Darslik.,O'qituvchi nasriyoti., Toshkent -1972

<sup>4</sup> R.Rasulov.,Umumiyltilshunoslik. Darslik., Toshkent-2010

Etimologiya - (yunoncha - haqiqat, so‘zning haqiqiy ma’nosi)<sup>5</sup> degan ma’noni anglatadi. Etimologik tahlilning asosiy metodi qiyosiy-tarixiy usul bo‘lib, u fonetik qonuniyatlar, morfologik qoidalar, morfologik o‘zgarishlarga tayanib ish ko‘radi.<sup>6</sup>

Ma’lumki, hindiy tilida so‘zlar etimologik jihatdan 4 guruhga bo‘linadi.

**Tatsama.** (Ya’ni "xuddi o’sha") Sanskrit tilidan bevosita adabiy yo‘l orqali o‘zlashtirilgan va asosan tub o‘z til so‘zлari singari qadimgi imloviy shaklini saqlab qolgan so‘zlar bu guruhga oiddir. Bunday so‘zlar tahlil davomida 85 tani tashkil etdi.

**आदान-प्रदान** - oldi-berdi, (o'zaro) almashinuv

**अस्त-शस्त्र** - qurol-asлаha

**अमोद-प्रमोद** - hazil-mutoyiba

**Tatbhava.** ("Ya’ni undan paydo bolgan) O’rta hind-oriy tillarining asosiy grammatikasidan o‘zlashtirilgan uch etimologik turlardan biri hisoblanadi<sup>7</sup>. Bu tipdagi so‘zlar uzoq davom etgan tovush ozgarishlari natijasida prakrit va apabhransha bosqichlaridan o’tib kelgan va mazkur tillar tarkibidagi asosiy qismni tashkil etgan mumtoz hind-oriy tillari sanskritdan kelib chiqqan deb tan olinadi. Bunday so‘zlar tahlil davomida 85 tani tashkil etdi.

**अगङ्गम-बगङ्गम** - 1) alg'ov-dalg'ov 2) bema'nilik

**आना-जाना** - kelib-ketish

**उधर-उधर** - bu yer-u yer, har yoqda

**उत्तर-पश्चिम** - shimol-g'arb

**ऐसा- वेसा** - unday-bunday

**ऊंचा- नीचा** - baland-past

**कर्चे-बर्चे** - bola-chaqa (bolakaylar)

**कहा-सुना** - adi-badi, aytishuv

**Deshiy** (ya’ni "mahalliy", "yerli"). Bular asosan sanskrit bilan taqqoslanganda, bu til tizimiga yot bo‘lib, ba’zilari dravid va munda sarchashmalari, qolganlari esa kelib chiqishi noma’lum bo‘lgan so‘zlardir. Ilmiy maqolamizda Deshiy so‘zleri uchramadi.

5 O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi T-2000 Davlat ilmiy nashriyoti.

6 O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi T-2000 Davlat ilmiy nashriyoti.

7 Пизани В.Этимология ,пер.сигал-М,1956

*Videshiy* so‘zlari deyilganda esa hindiy tiliga arab, fors, ingliz va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar kiradi<sup>8</sup>. Bizning ushbu ilmiy ishimizda ham videshi guruhiга oid so‘zlar uchradi ular orasi ko‘pgina arab hamda fors so‘zlari hamda bir nechta ingliz tilidagi so‘zlar uchradi.

Mazkur maqolamizda forscha so'zlar 17 tani tashkil etdi, jumladan,

अगर-मगर -1) agar-lekin 2) ikkilanish, qat'iyatlilik

अगाल-बगाल - 1) yon-atrof 2) har ikki tomonda

આબ-દાની - 2) oziq-ovqat

Arabcha so'zlar esa quyidagilarni tashkil etdi, अफरा-तफरी - 1) tepada-pastda

2) *g'ala-g'ovur*, 3) *ko'plik*

अमन -अमान - tinchlik-xotirjamlik

आमद-खर्च - kirim-chiqim ( sarf-xarajat)

ਡਨਾਮ-ਡਕਰਾਮ - izzat-ikrom

कायदा-कानून - qonun-qoida

Tahlil jarayonida gibridlar guruhiga oid juft so'zlar ham uchradi.

काग़ज़- पव- xat- xujjat P+S

उत्तर-पूर्ख- shimol -sharq S+H

Yuqoridagilardan kelib chiqib umumiyligi holatda quyidagi xulosalarni ham keltirib o'tish mumkin.

Hindiy tilidagi juft so'zlarga xos ilmiy-nazariy asarlar o'rganilganda, olimlar tomonidan juft so'zlarga oid turli xil fikr-mulohazalar berilganligi kuzatildi. Hindiy tilidagi juft so'zlarga xos so'zlar etimologik jihatdan tahlil etildi va ularning mahsuldor qoliplari misollar talqinida ko'rsatib berildi. Tadqiqot natijasida aniqlangan juft so'zlarni etimologik guruhlarga bo'lindi . Shu bilan birga gibrid juft so'zlarning modellari ham ishlab chiqildi va tahlil qilindi.

Hindiy tilidagi juft so'zlarni etimologik jihatdan tahlil qilishda asosiy manbaa sifatida 2 tomli "Хинди-русский словарь"<sup>99</sup> lug'atidan foydalanildi. Ushbu lug'atda "ਖ" harfigacha ko'plab juft so'zlar mavjudligi aniqlandi va kartochkalarga to'plandi.

<sup>8</sup> Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish. I-qism.-T., ToshDShI nashriyoti, 2003. -B.39.

<sup>9</sup> Хинди-русский словарь. Составители А.С. Бархударов, В.М.Весковный, Г.А.Зограф, В.М. Липеровский. Под ред . В.М.Бескровного. Т | - ||. -М.: Советская Энциклопедия,1972.

---

Ishimizning yana qolgan qismlarida bundanda ko'plab juft so'zlar tahlil qilinishi ham asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Hindiy tilidagi juft so'zlarni etimologik jihatdan tahlil qilish natijasida, *tadbhava* guruhiga oid bo'lgan so'zlar 97 tani tashkil etdi va tahlil davomida peshqadamlikda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi o'rinni esa tatsama so'zları egallagan bo'lib, ularning soni 85 taga yetdi. Mazkur ishimizda uchinchi o'rinda hozirgacha 23 ta videshi juft so'zlar topildi hamda ularni o'z navbatida 3 guruhgaga ajratishimiz mumkin. Oxirgi, ya'ni, to'rtinchi o'rinni 15 ta gibridlar guruhiga oid juft so'zlar tashkil etdi.

#### **REFERENCES**

1. Hojiyev. A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati .Davlat ilmiy nashriyoti., Toshkent - 2002.
2. O'zbekiston Milliy entiklopediyasi.-Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
3. Chhote bharaanii. Mukti keed.- Yangi Dehli: Abhivyanjanaa, 1981
4. Ғуломов А.Ғ. Ўзбек тилида сўз ясаш йўллари ҳақида А/ С. Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари. Биринчи китоб, Тошкент, 1949.
5. Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Весковний, Г.А. Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т I. -М.: Советская Энциклопедия, 1972.
6. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –T, 1972.